

**“O‘TKAN KUNLAR”DAGI STILISTIK FIGURALAR INGLIZCHA
TARJIMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK MASALALARI
(O‘XSHATISH MISOLIDA)**

Karimov Ma’rufjon Mamirjonovich, NamMTI, tayanch doktoranti,

E-mail: *karimov_maruffjon87@mail.ru*

Annotatsiya:

Ushbu maqola orqali o‘zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda tavsiflangan badiiy tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va konnotativ ma’noga ega leksik birliklarning tarjima qilish usullarini belgilashni hamda «O‘tkan kunlar» romanida qo‘llangan frazeologik birliklarning (o‘xshatish misolida) stilistik xususiyatlarini tarjima matnida qayta aks ettirish yo‘llarini aniqlashni maqsad qildik.

Kalit so‘zlar:madaniyat, urf-odat, tasviriy vositalar, xossa, tafovutlarga, tushunchalar, muvofiq, tarjima, retseptient, uslub, qo‘llamoq, normadan og‘ish, lingvokulturologik xususiyatlar, xos, allow, injustice, befall, blood, innocent, spill, inconceivable, peaceful, flame, despair, firmament, happiness, twinkle.

Annotation

Through this article, it is possible to analyze the specific features of literary translation described in the scientific works on translations from Uzbek to English, and to determine the methods of translation of lexical units with connotative meaning, and in the novel "The days gone by" We aimed to determine the ways of re-reflecting the stylistic features of the selected phraseological units (in the example of simile) in the translated text.

Key words:culture, tradition, figurative means, property, differences, concepts, compliance, translation, recipient, style, apply, deviation from the norm, lingo-cultural features, characteristic, allow, injustice, befall, blood, innocent, spill, inconceivable, peaceful, flame, despair, firmament, happiness, twinkle.

“Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani bilan o‘zbek adabiyoti maydonida yangi davrni, yangi maktabni boshlab berdi. Unda xalqimizning ongini oshirishga, tarixini tiklashga, o‘zbekona axloq-odoblari va rasmi

udumlarni avaylab asrashga, nafosatini namoyon etishga erishdi. Asarlarining o‘qishli bo‘lishiga yana bir sabab -ularning omma saviyasiga qarab yozilishidir”.

Darhaqiqat, muallif asarlari, jumladan, biz tahlilga tortgan ushbu romanning katta auditoriyada sevib o‘qilishiga sabab uning halqchilligi, jo‘nligida. Muallif badiiy tasvir vositalarni huddi atayin qo‘llamagandek tuyuladi, ya’ni “normadan og‘ish”da ham me’yorga amal qilgan. Tarjima matnlarida badiiy tasvir vositalarining lingvokul'turologik xususiyatlarini ifodalashda ularning mazmun-mohiyatiga hamisha e'tibor berish va uning mohiyatini to‘g‘ri aks ettirishni nazarda tutadi.

“O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan o‘xshatish leksik birligi: *“Oftob oyim boshi yanchilg‘an ilondek to‘lg‘andi:*

- Qizim ustiga kundash?!” Bu misol asosida ham mohirona o‘xshatish berilgan bo‘lib, salbiy xarakterdagi o‘xshatishdir. Chunki “ilon”, ya'ni jonivorlarda kuzatiladigan holat insonga ko‘chmoqda. “Ilon” so‘ziga – dek affiksini qo‘shilishi asosida sifatga aylanib, o‘xshatish hosil qilingan. Asliyat matnida keltirilgan lingvokulturologik xususiyatlar tarjima matnlarida qanday o‘girilganligi ikki tarjima matnlari misolida qiyosiy tahlil qilamiz:

Parchada qo‘llangan o‘xshatish I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidov tarjimasida: *“Oftob-oyim wawed as a trampled snake:*

-*“Rival to my daughter?!”* (Qizimga kundoshmi?! Oftob oyim yanchilgan ilonday qichqirdi) (KM) deb beriladi. Asliyatda keltirilgan «yanchilg‘an ilondek» birikmasi I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidov tarjimasida «trampled snake» (yanchilgan, ezg‘ilab tashlangan ilon) tarzida beriladi. Bunda o‘zbek tarjimonlari natjima(so‘zma-so‘z tarjima) yo‘li orqali birikma tarjimasini muvaffaqiyatli amalga oshirganlar.

Kerol Yermakova tarjimasida esa: *“Oftabayim flew into a rage:*

“A rival? For my daughter?!” (Kundosh? Qizim uchun?! Oftoboyim g‘azabga berildi.) (KM) tarzida beriladi. Asliyat matnida qo‘llangan o‘xshatish ifoda vositasi orqali ma'no ko‘chishi K.Ermakova tarjimasida aks ettirilmagan. Bunda mutarjim adekvat usuldan foydalanib, asliyatdagi mazmuni ochib

berishga harakat qilgan, bunga erishgan, biroq tasviriy ifoda etilgan ko'chma ma'no tarjimada oddiy gapga aylanib qolgan. Tarjimon tarjima matnida tasviriy vositalarning (sinekdoxa, o'xshatish, kinoya) lingvokulturologik xususiyatlarini reseptorga tushunarsiz bo'lmasligi uchun asliyat matni tilida so'zlashuvchi millatning urf-odatlaridan xabardor bo'lish darkor. Agar ifoda vositalarning lingvokulturologik xususiyatlari tarjima tilida noto'g'ri talqin etilsa, tarjimaning umumiy mazmuniga putur yetkazadi. Tarjimalarning birida to'liq in'ikosini topmagan badiiy tasvir vositalari ikkinchi bir tarjimada o'z ifodasini topishi mumkin. Ba'zan tarjimalarda mutarjimlar ijodkorlikka beriladi, ayrimlarida sharh va izohlarga keng o'rin beradi. Asliyat matnining mazmunan boshqa asarga aylanishiga sabab bo'ladi. So'zlashuv jarayonida ko'plab murojaat qilinadigan o'xshatish xikoya qilinayotgan narsa va hodisaning kengroq ko'lamdagi tasvirini berishga, konkretlik va ixchamlikka xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda esa uning vazifasi birmuncha mukammal. Bunda u obraz yaratishga ko'maklashish bilan qadimiylikni yuzaga keltiruvchi, ijodkor maqsadini, niyatini to'laroq ifoda etuvchi vosita sifatida, emotsionallikni ro'yobga chiqaruvchi badiiy usul sifatida ishtirok etadi va shuning uchun ham o'xshatish hodisasiga boshqa funktsional-uslublarga qaraganda faol murojaat qilish badiiy uslubga xos xususiyat sanaladi.

Ko'plab misollar tahlili badiiy asardagi obrazlar dinamikasida insonlarni, ularning fazilatlarini, butun borliqdagi narsa va hodisalarni bir-biriga qiyoslash juda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi. Ana shu taqqoslashlar natijasida kutilmaganda badiiy go'zal obrazlar shakllanadi, tilimizning yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo'ladi, qirralari ochiladi. Abdulla Qodiriy o'xshatishlariga va ularning tarjimalarda aks etish masalariga nazar tashladik.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

Xabibullo Qodiriy. Ta'rifi adib. – Toshkent: Halq merosi, 2004. – B.3

I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov. The days gone by. Tashkent, 2017, p. 102

Khoshimova, D. M., & Inomiddinova, D. I. (2015). COMPARATIVE STUDYING THE WORLD OF ANIMALS IN" BABURNAME" BY ZM BABUR. Вестник современной науки, (9- 1), 97-99.

Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF "BABURNAME". Gospodarka i Innowacje., 24, 1067-1069.

Н Ахмаджонов, А Рўзиматова. Фразеологизмлар немис халқи миллий маданиятининг кўзгусидир. o‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. УДК:40/42/48. ISSN: 2181-3302.SJIF:4.621 2022. 08.20. 10-Son. Б.104-109

Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN" BABURNAME". The Scientific Heritage, (49-3), 50-51.

Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». Sciences of Europe, (45-5 (45)), 46-48.